

**MAMLAKATIMIZDA MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLARNI TASHKIL
ETILISHI VA UZLUKSIZ TA'LIM TIZMI**

*Ergashev Humoyun Samad o'g'li
Qashqadaryo viloyati Kitob tumani
70-umumiy o'rta ta'lif maktabi o'qituvchisi*

Annotatsiya: Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyin chuqur iqtisodiy – siyosiy islohotlar, ayniqsa, ma'naviy sohada, inson haq-huquqlarini ta'minlash borasida benihoyat keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etilishi mexanizmi va normativ-huquqiy asoslari yartildi. Mazkur maqolada mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etilishi mexanizmi va ularni uzluksiz ta'lif tizmida samarali qo'llash masalalari to'g'risida fikr yuritilgan. Mamlakat hayotida ro'y berayotgan iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ijtimoiy o'zgarishlar, amalga oshirilayotgan islohotlardan maqsad odamlarga munosib turmush sharoitlari yaratishdir. Ma'naviy-ma'rifiy va mafkuraviy targ'ibot ishlari bugungi kunda jamiyat hayotining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Kalit so'zlar: mafkura, inson huquqlari, davlat siyosati, normativ hujjatlar, adolat, uzluksiz ta'lif tizmi, ma'naviy tarbiya, insonparvarlik

Mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tizimli tashkil etish, bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish, aholi, ayniqsa yoshlarning intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, vatanparvarlik, xalqqa muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda.[1]

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarda ma'naviyatning mohiyatini chuqur anglash muvafaqqiyat garovidir. Chunki ma'naviyat-insonning insoniylik mohiyati, shaxsragi ijobjiy fazilatlar majmui, insonning zohiriylari va botiniy qiyofasi. U inson hayotining tub mohiyatini belgilaydigan aqliy, ruhiy, axloqiy va jismoniy qarashlar, ko'nikmalar, odatlar tizimidir. Ma'naviyat – har bir insonning milliy va umuminsoniy komillik darajasi, unga yetaklovchi, undovchi imkoniyat. U inson shaxsini insoniylik bilan boyituvchi, kamol toptiruvchi, ko'rklashtiruvchi beqiyos hayotiy omil.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-iyuldagagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishning yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi Qarori qabul qilinishi natijasida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni amalga oshirish yangi bosqichga ko'tarildi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda yoshlar tarbiyasiga e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida 2022-yil 23-avgust

kuni bo‘lib o‘tgan xalq ta’limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma’naviyatini yuksaltirish masalalariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida ta’lim va tarbiyaning ahamiyati haqida so‘z bordi. Mazkur yig‘ilishda Davlatimiz rahbari yosh avlod tarbiyasi, odob-axloqi haqida to‘xtalib, “Maktab - bu hayot-mamot masalasi, kelajak masalasi. Bu masalani davlat, hukumat va hokimlarning o‘zi hal qilolmaydi. Bu butun jamiyatning ishi, burchiga aylanishi kerak. Maktabni o‘zgartirmasdan turib, odamni, jamiyatni o‘zgartirib bo‘lmaydi”, - deya alohida ta’kidladi.[2]

Darhaqiqat, uzoq yillar davomida tarbiya bolalar ta’limdan bo‘sh vaqtida amalgalashiriladigan qo‘sishimcha yuklamaga – ikkinchi darajali ishga aylanib, uzuq-yuluq jarayon bo‘lib kelganligi sir emas. Tarbiyada yo‘l qo‘yilgan xatolar asoratlari kundalik hayotda, ommaviy axborot vositalarida, ijtimoiy tarmoqlarda keng muhokama qilinib, jamoatchilikning haqli e’tirozlariga sabab bo‘lmoqda.

Shunday bir vaziyatda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2022-yil 3-maydagи PQ 4307-sonli qarori ijrosini ta’minalash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 31-dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalgalashirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 1059-sonli qarorining chiqishi bu millat kelajagi, millat ma’naviy taraqqiyoti uchun bir o‘ziga hos tarixiy voqelik bo‘ldi. Mazkur konsepsiya 8 ta bob va ma’naviy tarbiyaning uzluksizligini ta’minalashga qaratilgan 61 ta maqsadli va manzilli tadbirlar rejasidan iborat bo‘lib, uning amalgalashirish 4 bosqichdan iborat bo‘ladi.

Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasining asosi milliy tarbiyamiz, Unsur Ul Maoliy Kaykovus, Yusuf Xos Hojib, Abu Rayhon Beruniy, Imom Buxoriy, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy, Abu Nasr Farobi, Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat kabi ulug‘ mutafakkirlarimizning ma’naviy-ilmiy merosiga asoslangan. Ayni vaqtida dunyoning rivojlangan davlatlari tajribasida sinovdan o‘tgan zamonaviy tarbiya texnologiyalaridan foydalanish Konsepsiyaning zamon bilan hamnafasligiga xizmat qiladi.

Uzluksiz ma’naviy tarbiya Konsepsiysi o‘zida dunyo pedagogik tajribasi va yutuqlarini mujassam etganligi alohida ta’kidlandi. Jumladan, Yevropa Ittifoqining tarbiyaviy tavsiyalari, AQSh tajribasidan shaxs erkinligi, tadbirkorlik, muvaffaqiyatga erishishga intilish, Janubiy Koreyada yoshlar ongiga urf-odatlar, axloqiy ideallarni singdirish, Yaponiyaning “xarakterni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim”, Xitoyning yaxshilik, to‘g‘rilik, poklik, donolik va ishonchlilik kabi fazilatlarni tarbiyalashga qaratilgan pedagogik tajribalari o‘rganilgan.

Konsepsiya O‘zbekistonda yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar va uni bugungi kun

ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetentsiyalar, fazilatlar asosida shakllantirish ishiga katta ahamiyat berilgan. Buning uchun oila, maktabgacha ta'lif, umumiy o'rta, o'rta maxsus kasb-hunar, oliy ta'lif muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik hamkorlikni yangi darajaga ko'tariladi.

Konsepsiya oldiga qo'yilgan vazifalar:

- ma'naviy-axloqiy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish;
- tarbiyaning homiladorlik davridan boshlanadigan, tadrijiylik va uzluksizlik tamoyillariga asoslangan metodikasini ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish;
- uzluksiz tarbiya tizimida milliy va zamonaviy pedagogikaning ilg'or yutuqlaridan samarali foydalanish;
- tarbiyalanuvchilar bilan birga tarbiyachilarning ham bilimi va malakasini muntazam oshirib borish;
- oila, ta'lif muassasalari va mahalla, shuningdek, ommaviy axborot vositalari va boshqa ijtimoiy tuzilmalar o'rtasida samarali hamkorlik mexanizmini yo'lga qo'yish;
- ma'naviy tarbiyaning tadrijiy rivojlanish va uzluksizlik tamoyillariga asoslanishdan iborat.[3]

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va bunyodkorlik ishlari natijasida xalqimizning ongu tafakkuri, dunyoqarashi o'zgarmoqda. Yurtimizda huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatini barpo etishda "Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari" degan hayotbaxsh g'oyaning ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Bu borada olib borilayotgan muhim ishlarga qaramasdan, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalardagi yangilanishlar jarayonida ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning samaradorligiga to'siq bo'layotgan bir qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda.

Xususan, ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarni tashkil etishda yaxlit tizim mavjud emas, xalqimiz, ayniqsa yoshlarni ma'naviy tahdidlardan himoya qilish borasida yetarli darajada tashkiliy-amaliy va ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmayapti, ushbu yo'nالishda davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyatni institutlari, ommaviy axborot vositalari hamda xususiy sektorning ijtimoiy hamkorligi samarali yo'lga qo'yilmagan.[4]

Milliy mafkuraviy immunitet har bir yigit-qiz, fuqarodagi mustaqillikning siyosiy mohiyati, Prezident asarlarida ko'tarilgan "Yangi O'zbekiston" g'oyalari, islohotlar yutuqlari va muammolari, ichki va tashqi siyosatga doir chuqur bilimlarga tayanadi. Har bir kishi, yoki jamoa, jamiyat mafkuraviy immunitetini besh darajaga bo'lib o'rganish, baholash va shu asosda takomillashtirish mumkin: Bunda:

- birinchi, ya'ni mafkuraviy immunitetning quyi darajasi - shaxs, jamoa, jamiyat yuqoridagi bilimlardan xabardor emas; buzg'unchi mafkuraviy g'oyalarga befarq, loqayd;

- ikkinchi darjası - bilimlар бор, лекин ular his qilinmagan, sistemalashmagan, shu sababli ularni buzg'unchi mafkuraviy g'oyalarga qarshi ishlatishga tayyor emas;
- uchinchi darjası - mafkuraviy bilimlarga ega, lekin ular nazariy, shaxs, jamiyat ularni qo'llashga qiynaladi;
- to'rtinchı darjası - asosli bilimlarga ega, vaziyatni to'g'ri baholay oladi; ichki va tashqi siyosiy, mafkuraviy ta'sirlarga qarshi immuniteti shakllangan va uni ongli ravishda ishlatadi;
- beshinchisi - oliv daraja - mukammal g'oyaviy, siyosiy, iqtisodiy bilimlarga ega va bu bilimlarni bermalol amalda qo'llab, buzg'unchi mafkuraviy, siyosiy g'oyalarni doimo, hamma joyda faol fosh qila oladi.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, keyingi yillarda ayrim yoshlarda millatga, Vatanga foyda keltirishni o'ylash, mustaqillikni mustahkamlashda foydali inson bo'lib yetishish hissi maxsus, ilmiy asosda shakllantirilmaganligi tufayli shaxsiy manfaatni o'ylash, yengil yo'llar bilan to'kis xayotga intilish hissi namoyon bo'lmoqda. Shu bilan birga ayrim fuqarolar orasida ma'naviy cheklanganlik, dunyoqarashning torligi, milliy odob me'yorlariga rioxal qilmaslik, so'z va ish orasidagi tafovut, milliy g'uruning sustligi kabi noxush ko'rinishlar uchrab turadiki, ularni birgalashib bartaraf qilish lozim.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta'kidlangan: "Uzluksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirish printsiplaridan biri ta'limning insonparvarlashuvidir. Ta'limning insonparvarlashuvi – inson qobiliyatlarining ochilishi va uning ta'limga nisbatan bo'lgan turli tuman ehtiyojlarining qondirilishi, milliy va umumbashariy qadriyatlar ustuvorligining ta'minlanishi, inson, jamiyat va atrof muhit o'zaro munosabatlarining uyg'unlashuvidir".[5]

Uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish tadbirlari – bu tizimni demokratik va insonparvarlik yo'nalishlarida qayta qurish bilan ham bog'liq. Chunki, insonparvarlik g'oyalari va tamoyillari milliy g'oya bilan chambarchas bog'liq bo'lib, insonning moddiy farovonligi va ma'naviy barkamolligi, erkin, mustaqil, ijodiy faoliyatini, kishilarining o'zaro hamkorligi, do'stligi, hamjihatligi, birdamligi va bir-biriga g'amxo'rliги kabi eng yuksak, ilg'or insoniy fazilatlarni o'zida mujassam etadi. Odillik, halollik, poklik, to'g'rilik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, odoblilik, vijdonlilik, iymon-e'tiqodlilik, mehmondo'stlik, kamtarlik, or-nomusni, sharm-hayo va iffatni e'zozlash, tinchliksevarlik, oljanoblik, el-yurt manfaatini o'z manfaatidan ustun qo'yish kabi yuksak insoniy fazilatlar ham insonparvarlikning namoyon bo'lishidir. Bu esa, o'zo'zidan, uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimini insonparvarlashtirish ehtiyojini kun tartibiga qo'yadi. Ushbu ehtiyoj mazkur masala bo'yicha ilgari surilgan fikr-mulohazalarni va tavsiyalarni ta'lim-tarbiya tizimiga joriy etish, ijtimoiy-gumaniar fanlar mazmuniga kiritish yo'l-yo'riqlarini o'zida ifoda etadi. O'zbekistonda ta'lim-tarbiya tizimini insonparvarlashtirish, umuman jamiyatni insonparvarlashtirishning

ajralmas tarkibiy qismi ekanligi ta'kidlanadi va bu borada amalga oshirilishi zarur bo'lgan tadbirlardan biri – mazkur tizimni insonparvarlashtirish yo'l-yo'riqlari va maqsadlari ochib ko'rsatiladi.

ta'lim — ta'lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko'nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta'lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon.[6]

Ta'lim tizimi – ta'limning mazmuni, shakli va usullarini belgilovchi qoidalar (tamoyillar) asosiy ketma-ketlik, oddiydan murakkabga qarab borish tizimi.

Uzluksiz ta'lim – inson butun hayoti mobaynida olishi mumkin bo'lgan ta'lim. Uzluksiz ta'lim deganda, uning rivojlanishi tugamasligi, tadrijiy bog'liq bo'lgan bir necha bosqichlarga bo'linishi, har bir bosqich yangi, ancha yuqori darajadagi bosqichga o'tish uchun imkon yaratishi tushuniladi.

Uzluksiz ta'lim tizimi – yagona ta'lim tizimi, ta'limni shaxs ijodiy imkoniyatlarining muntazam rivojlanishini ta'minlovchi bir umrlik jarayon sifatida talqin etiladi va uning ma'naviy dunyosini har tomonlama boyitadi. Tizim shaxsning rivojlanish jarayonini, "pillapoya" tarzida uning qaror topishining imkonini beradi, "pillapoya"ning har bir pog'anasi insonning o'z ta'lim jarayonida yanada yuqori darajada erishishga tomon tadrijiy harakatini anglatadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlarining shaklan va mazmunan uyg'unligini, muntazamligini, haqqoniylilikka asoslanishini ta'minlash, ya'ni ommaviy axborot vositalarida faol ishtirok etish yo'li bilan mamlakatda amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy islohatlarning, qabul qilinayotgan farmonlar, qarorlar va qonunlarning mohiyatini keng jamoatchilikka tezkorlik bilan yetkazish va kundalik faoliyat dasturiga aylantirish ishlari amalga oshirilmoqda. Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni samarali tashkil etish orqali turli xil mafkuraviy tahdidlarni oldini olishga asos bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.05.2019-y., 07/19/4307/3079-sон; 17.03.2021-y., 06/21/6188/0216-сон, 26.03.2021-y., 07/21/5040/0243-сон
2. <https://kun.uz/uz/news/2019/08/23/maktablar-uchun-mablagni-ayamaymiz-president-talim-masalalariga-bagishlangan-videoselektor-otkazdi>
3. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 03.01.2020-y., 09/20/1059/4265-сон, 19.06.2020-y., 09/20/391/0777-сон; 10.08.2022-y., 09/22/438/0726-сон
4. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.03.2021-y., 07/21/5040/0243-сон; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 03.12.2022-y., 06/22/258/1064-сон; 13.06.2023-y., 06/23/92/0366-сон
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-y., 11-12-сон, 295-modda; O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2007-y., 15-сон,

150-modda; 2013-y., 41-son, 543-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.01.2018-y., 03/18/456/0512-son

6. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020-y., 03/20/637/1313-son; *Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son*

Anjuman qatnashchisi talabnomasining namunasi:

1. Familiya, ism, sharifi Mavlonov Feruz Oblakulovich
2. Ilmiy darajasi va unvoni O'qituvchi
3. Ish joyi, lavozimi Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi
4. Maqolaning nomi : Mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etilishi va uzlucksiz ta'lim tizmi
5. Qaysi sho'baga tegishli: *Ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish muammolari*
6. Telefon raqami +998 99 666 88 17